O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
INSON RESURLARI VA MAHALLA TARAQQIYOTINI BOSHQARISH INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi: № BD- 60411000 2024-yil “12 10		**“TASDIQLAYMAN”** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024-yil “__”_____

“INSON KAPITALI IQTISODIYOTI”
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60411000 – Inson resurslarini boshqarish

Fan/modul kodi IKI1605	O‘quv yili 2026-2027	Semestr VI	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	INSON KAPITALI IQTISODIYOTI	62	88	150

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** – insonlarning bilim, ko’nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdir. Bunda talabalarga zamonaviy iqtisodiy bilimlar va ko’nikmalarni berish, innovatsion fikrlash va yangiliklarni joriy etish qobiliyatini rivojlantirish, inson kapitalini samarali boshqarish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, jamiyatning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo’shish hisoblanadi. **Fanning vazifasi** – inson kapitalining iqtisodiy qiymatini aniqlash va uni baholash usullarini o’rgatish, ta’lim tizimi va malaka oshirish dasturlarining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish, sog’liqni saqlash tizimining inson kapitaliga ta’sirini o’rganish va uning iqtisodiy ahamiyatini tushuntirish, mehnat bozoridagi o‘zgarishlar va tendensiyalarni tahlil qilish, ishchi kuchining sifatini oshirish yo‘llarini ko’rsatish, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarning inson kapitaliga ta’sirini o’rganish, ijtimoiy siyosatning inson kapitaliga ta’sirini tahlil qilish va samarali siyosatlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**“Inson kapitali iqtisodiyoti” fani: asosiy tushunch va bosqichlari** Inson kapitalining paydo bo‘lishi va tarixiy ildizlari. Inson kapitalining mohiyati va xarakterli xususiyatlari. Inson kapitali va uning tarkibi.
M2	**Inson kapitalini shakllantirish asoslari** Inson kapitalining tarkibiy mazmuni. Inson kapitali turlari va ularning tavsifi. Inson kapitalini shakllantirish oinillari va shartlari.
M3	**Inson kapitaliga sarmoya kiritish yo‘nalishlari** Inson kapitali mikro, mezo va makro darajada baholash uslubi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish mexanizmlari. Shaxsiy, korporativ va milliy inson kapitaliga sarmoya kiritish samaradorligini baholash usullari.
M4	**Mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirishda inson kapitali omili** Mehnat bozori segmentatsiyasida intellektual inson kapitalining ahamiyati. Mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan aholi va yoshlami ish bilan bandligining kafolatlari. Uyushmagan yoshlarni mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlarga o‘qitish va xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish vazifalari.
M5	**Inson kapitalidan samarali foydalanishini tashkil etish** Korxonnlnrda inson rcsurslaridan foydalanish va boshqarish modellari. Inson kapitalidan foydalanish samaradorligini o‘lchash va baholash uslublari. Milliy, mintaqaviy va korporativ inson kapitalidan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlari
M6	**Milliy inson kapitaliga investitsiya samaradorligini tahlil qilish** Ta’limga sarmoya kiritish samaradorligini baholash. Inson kapitalini kasbiy ta’lim dasturlari va kasbga yo‘naltirish asosida boshqarish. Inson kapitaliga investitsiyalarning asosiy yo‘nalishlari
M7	**Inson kapitalini baholash ko‘rsatkiciirlari va usullari** Inson kapitalini baholash usullari. Inson kapitalini baholash ko‘rsatkichlari. Korxonalarning inson kapitali baholash usullari.
M8	**Inson kapitalini raqobatbardoshligini baholash** Inson kapitali raqobatbardoshligini ta’minlash omillari. Inson kapitalining raqobatbardoshligini baholash.
M9	**Mintaqaning inson kapitalini boshqarish uslubi** Mintaqaning inson kapitaiini baholash ko‘rsatkichlari. Mintaqaning inson kapitaiini boshqarish samaradorligini baholash. Mintaqaning inson kapitaiini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi.
M10	**O‘zbekistonda milliy inson kapitalini rivojlantirish tendensiyalari** O‘zbekistonda inson kapitalining shakllanishida “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning roli. Intellektual inson kapitali - raqamli iqtisodiyotninjf asosiy omili. Milliy inson kapitaliga sarmoya kiritish yo‘nalishlari
III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar: seminar (S) **Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**	
A1	“Inson kapitali iqtisodiyoti” fani: asosiy tushunch va bosqichlari
A2	Inson kapitalini shakllantirish asoslari
A3	Inson kapitaliga sarmoya kiritish yo‘nalishlari
A4	Mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirishda inson kapitali omili
A5	Inson kapitalidan samarali foydalanishini tashkil etish
A6	Milliy inson kapitaliga investitsiya samaradorligini tahlil qilish
A7	Inson kapitalini baholash ko‘rsatkiciirlari va usullari
A8	Inson kapitalini raqobatbardoshligini baholash

A9	Mintaqaning inson kapitalini boshqarish uslubi
A10	O‘zbekistonda milliy inson kapitalini rivojlantirish tendensiyalari

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

“Inson kapitali iqtisodiyoti” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta’lim mavzulari
1.	“O‘zbekiston -2030” strategiyasida inson kapitalining o‘rni
2.	Globallashuvning personalni riojlantirish ko‘rsatadigan ta’siri natijalarining tahlili.
3.	Inson kapitalini xalqaro yo‘nalishlar.
4.	Inson kapitalini funksional rollari (Leggening innovator kadrlar modeli; Tayson va Fellarning qurish obyekti modeli; Storining strategik / taktik modeli; Ulrixning chempion kadrlar modeli; Ulrix va Brokbenklarning yangilangan modeli; Kaldvelning o‘zgarishlar matritsasi).
5.	Xorijiy kompaniyalarda inson resurslari departamenti faoliyatini tashkil etish tajribasi.
6.	Inson kapitalini ga bo‘lgan universal va vaziyatli yondashuvlar.
7.	Inson kapitalini ga resursli yondashuv konsepsiyasi (RBV - resourcebased view).
8.	Korxona va tashkilotlarda Inson kapitalini ning mohiyati, mazmuni va ahamiyati.
9.	Inson kapitalini samaradorligi.
10.	Inson kapitalini kar’eraning rivojlanishi va tashkiliy rivojlanishning ahamiyati.
11.	Inson kapitalini va iste’dodlarni boshqarish (talent management) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari.
12.	Inson kapitalini jarayoniga ishchi-xodimlarni jalb qilish masalalari.
13.	Xorijiy kompaniyalarda inson kapitalini bilimlar menejmentidan samarali foydalanish tajribasi.
14.	Inson kapitalini va korporativ ijtimoiy javobgarlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari.
15.	Inson kapitalini va o‘zgarishlarni boshqarish (change management) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalalari
16.	Globallashuv sharoitida Inson kapitalinining yangi shakllari.
17.	O‘zbekistonda Inson kapitalinining rivojlantirish usullari.

“Inson kapitali iqtisodiyoti” fani bo‘yicha mustaqil ta‘lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu fan ham ma’lum hissa qo‘shadi, deb o‘ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda fan vazifasi aniqlangan: oliy ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari talablariga muvofiq talabalar, o‘quvchilarda tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va roli, belgilari va tamoyillari, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, boshqarish, marketing, tahliliy asoslari to‘g‘risida bilimlar tizimini shakllantirish; O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash siyosati, amaliyoti, muammolari va istiqbollari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to‘g‘risida talabalar qay tarzda o‘zlashtirish, bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun asosiy ilmiy va nazariy bilimlarni qo‘llash; • menejment yoki boshqarish strategiyalarini; korxona va tashkilotlarda inson kapitalini tizimi, asosiy tamoyillari va usullarini; • amaliyotda inson kapitalini borasida mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llarini; • inson kapitalini qarorlar qabul qilish yo‘llari va usullarini; • inson kapitalini strategiyalarning tutgan o‘rni va roli bo’yicha tadqiqotlarning tizimli tahlil metodlarini qo’llash bo‘yicha ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;*** • inson kapitalinining mazmuni, mohiyati va ahamiyatini to‘g‘ri anglay bilish; • inson kapitalini strategiyalarini ishlab chiqishda analitik tahlil usullaridan foydalanish; • inson kapitalini strategiyalarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda risklarni baholash usullaridan foydalanish; • inson kapitalini strategiyalarini amalga oshirish yo‘llari va usullaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;*** • korxona va tashkilotlarda inson kapitalini samarali tashkil qilish maqsadida strategiyalarni to‘g‘ri tanlash; • inson kapitalini strategiyalarini ishlab chiqishda samarali qarorlarni qabul qilish; • inson kapitalini strategiyalarini ishlab chiqish, amalga oshirish va nazorat qilish jarayonini samarali tashkil etish; • inson kapitalini strategiyalarining samaradorligi va unga ta’sir qiluvchi omillar, jumladan turli risk omillarini baholash;

	• inson kapitalini strategiyalarini ishlab chiqish, amalga oshirish va nazorat qilish bo'yicha xorijiy kompaniyalar tajribasidan foydalanish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmanova G.K., Bozorova S.A. Inson kapitali iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022.156 bet.
2. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Nazariya va amaliyot. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "FAN" nashriyoti davlat korxonasi. T.: 2019 y. 212 bet.
3. Ustinova K.A., Gubanova E.S., Leonidova G.V. Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitali: Monografiya. - Vologda: Rossiya Fanlar akademiyasining Hududlami ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish instituti, 2017. - 195 p.
4. Q.J.Mirzaev, S.B.Boboqulov, A.A.Abdusaidov. Inson kapitali iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – S.: SamISI, - 250.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. ""O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni.
3. Abdurahmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Zokirova N.Q., Irmatova A.B. Personalni boshqarish. Darslik. - T.: "Iqtisodiyot", 2019 - 580 b.
4. Soloduxina O.I. Inson kapitalini shakllantirish va undan foydalanish jarayonlarini boshqarish mexanizmi // Iqtisodiyot fanlari. - 2016. - No 2. - B. 30-33

AXBOROT MANBALARI:

1. https://president.uz/uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. https://gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy portal
3. https://www.imv.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti
4. https://mehnat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy veb-sayti
5. https://gov.uz/en/miit – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti
6. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy-veb-sayti.
7. https://www.lex.uz/uz/ – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari elektron bazasi.

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024-yil "31" 08 dagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **B.S.Boltayev** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi o'qituvchisi, i.f.f.d.
9.	**Taqrizchilar:** X.A.Karjavova – SamDU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, PhD +998 91 524 87 87 Sultonov Sh. – SamISI, "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent. +998 99 025 45 07

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Arabov N.U.

Kafedra mudiri: **N.U.Arabov**

Institut direktori: **Sh.D.Djurakulov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha 1-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi o'qituvchisi, PhD B.S.Boltayevning "Inson kapitali iqtisodiyoti" faniga tayyorlagan fan dasturiga

TAQRIZ

O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho'qqilarini zabt etishning mashaqqatli bosqichlarini ko'rish mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligimiznin shakllanishi, jamiyatda ilmu fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolaming o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga hissa qo'shishdek iftixorli jarayonlar gavdalanadi.

Iqtisodiy o'sishning eng muhim jihatlaridanbiri inson kapitali ekan, inson kapitaliga ega bo'lish va undan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining dunyo miqyosidagi o'mini belgilab beradi. Shu munosabat bilan inson kapitalining sifati, uning miqdoriy va sifat xususiyatlarini raqamlashtirish jarayonlari ta'sirida, o'zgarib borayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyaga qanchalik muvofiqligini aniq tushunish zarur.

Innovatsion iqtisodiyotning asosini, hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan, inson kapitali taslikil etadi. Ya'ni inson tafakkuri ishlab chiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo'lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Dastavval insonni rivojlantirish tushunchasining tarkibiy qismlari u qadar ko'p bo'lmasdan, tarbiya, ta'lim, bilim, salomatlikni qamrab olardi. Shu bilan birga uzoq vaqt davomida insonni rivojlantirishga iqtisodiy o'sish nazariyasi nuqtai nazaridan taraqqiy etishning ijtimoiy, ya'ni chiqimli omili sifatida qaralardi. Tarbiya va ta'limga investitsiyaJar noishiab chiqarish xarajatlari hisoblanardi.

Shularni inobatga olib, "Inson kapitali iqtisodiyoti" fani yuzasidan tayyorlangan fan dasturi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko'makchi bo'ladi deb hisoblayman.

Taqrizchi:
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri,
i.f.n., dotsent — Sh.Sultonov

KADRLAR BO'LIMI

IMZONI TASDIQLAYMAN
SamISI
KADRLAR BO'LIMI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi o'qituvchisi, PhD B.S.Boltayevning "Inson kapitali iqtisodiyoti" faniga tayyorlagan fan dasturiga

TAQRIZ

Jahon ilmiy hamjamiyatining e'tirof etilishicha, O'zbekiston qadimdan madaniyat va sivilizatsiya barpo etuvchi zamindir. Darhaqiqat, o'rta asrlarda O'zbekiston hududida vujudga kelgan ilmiy-ma'naviy yutuqlar Yevropadagi ilmu fanga asos bo'ldi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy kabi ulug' mutafakkirlarimizning beqiyos ilmiy-falsafiy risolalari dunyoviy bilimlami rivojlantirish va tizimlashtirish bilan bir qatorda, nafaqat o'z zamonasi, balki keyingi yuz yilliklarga tegishli umumjahon tamaddunining yuksalishiga asos solgan.

Iqtisodiy o'sishning eng muhim jihatlaridanbiri inson kapitali ekan, inson kapitaliga ega bo'lish va undan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining dunyo miqyosidagi o'mini belgilab beradi. Shu munosabat bilan inson kapitalining sifati, uning miqdoriy va sifat xususiyatlarini raqamlashtirish jarayonlari ta'sirida, o'zgarib borayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyaga qanchalik muvofiqligini aniq tushunish zarur.

Innovatsion iqtisodiyotning asosini, hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan, inson kapitali taslikil etadi. Ya'ni inson tafakkuri ishlab chiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo'lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Dastavval insonni rivojlantirish tushunchasining tarkibiy qismlari u qadar ko'p bo'lmasdan, tarbiya, ta'lim, bilim, salomatlikni qamrab olardi. Shu bilan birga uzoq vaqt davomida insonni rivojlantirishga iqtisodiy o'sish nazariyasi nuqtai nazaridan taraqqiy etishning ijtimoiy, ya'ni chiqimli omili sifatida qaralardi. Tarbiya va ta'limga investitsiyaJar noishiab chiqarish xarajatlari hisoblanardi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab taraqqiy etgan davlatlarda inson kapitaliga moddiy jamg'armalar miqdoriga qaraganda yuqoriroq bo'lmoqda. Ishlab chiqarishga investitsiyalar kiritish qanchalik muhim bo'lmasin, inson kapitalini rivojlantirishga sarmoyalarga ko'proq ustuvorlik berilishi milliy inson kapitalini mamlakat iqtisodiyotida muhim omini ifodalaydi.

Shularni inobatga olib, "Inson kapitali iqtisodiyoti" fani yuzasidan tayyorlangan fan dasturi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko'makchi bo'ladi deb hisoblayman.

Taqrizchi:
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, PhD — X.A. Karjavova

INSON RESURSLARI TASHKILOTCHILIGI VA BOSHQARISH INSTITUTI